

Jizzax viloyatida kimyo sanoati korxonalari vakillari bilan amaliy muloqot tashkil etildi

// 04.06.2026

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/20260604-1>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan o'tkaziladigan VI ochiq muloqoti doirasida "O'zkimyosanoat" AJ rahbariyatining joylarda biznes vakillari bilan bevosita uchrashuvlari davom etmoqda. Ana shunday tadbirlardan biri Jizzax viloyatida kimyo sanoati sohasida faoliyat yuritayotgan korxona rahbarlari ishtirokida bo'lib o'tdi.



Muloqot chog'ida ishlab chiqarish jarayonlarida uchrayotgan muammolar, sohani yanada rivojlantirishga qaratilgan takliflar hamda tadbirkorlarni qiziqtirayotgan masalalar muhokama qilindi. Bildirilgan murojaatlar atroflicha o'rganilib, ularni hal etish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar belgilab olindi.



Shuningdek, yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash masalalari yuzasidan fikr almashildi.



Bu kabi uchrashuvlar davlat organlari va biznes hamjamiyati o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, sohadagi dolzarb masalalarga yechim topish hamda tadbirkorlar uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratishga xizmat qilmoqda.